

**XORIJIY DAVLAT TALABALARINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK
MOSLASHUV OMILLARI VA KO'RSATKICHLARI**

Jabborova Musharraf Zafarbek qizi
Andijon davlat universiteti doktoranti

Annotasiya: Maqolada xorijiy davlat talabalarining ijtimoiy-psixologik moslashuv omillari va ko'rsatkichlari haqida keng ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-psixologik, individ, modernizatsiyalashuv, progressiv.

KIRISH:

Xorijiy talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi muammosi uzoq vaqtdan beri ilmiy munozaralarda ham, ommaviy muhokama maydonchalarida ham muhokama qilinmoqda. Ijtimoiy moslashuv-individning ijtimoiy muhitga doimiy faol moslashish jarayoni va bu jarayonning natijasi. Ijtimoiy moslashuv uzluksiz xususiyatga ega ekanligiga qaramasdan, uni, o'zgartirish davrlari bilan bog'laydilar. Moslashish jarayonining ijtimoiy muhitga faol ta'sir etish ko'rinishi va muhitdagi maqsad va qadriyatlarni kelishuvchanlik bilan, passiv qabul qilish ko'rinishi bo'ladi. Ijtimoiy moslash shaxs timoiylashuvining asosiy ijtimoiy-psixologik omillaridan biridir. moiy moslashuvning samaradorligi ko'p jihatdan individ o'zini va o'zining ijtimoiy aloqalarini qanchalik o'xshash anglashiga bog'liq.

ASOSIY QISM:

Biz ko'rib chiqayotgan muammoning dolzarbligi hozirda bir qancha omillarga bog'liq. Bir tomondan, kasbiy tayyorgarlikning turli yo'nalishlari va darajalari bo'yicha ko'plab takliflarni o'z ichiga olgan ta'lim xizmatlarining jahon bozori shakllanmoqda. Xorijiy talabalar oqimi jahon bozorida talab yuqori bo'lgan raqobatbardosh ta'lim tizimining muhim mezonini hisoblanadi. Ta'lim muhitidagi ijtimoiy harakatchanlik odamlar ta'lim olish uchun kelgan mamlakatning ijobiy qiyofasini shakllantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Shaxsiy darajada milliy ta'lim tizimlarini modernizatsiyalashuv jarayoni dunyoning turli mamlakatlarida yuqori sifatli ta'lim xizmatlarini olish uchun shart-sharoit yaratish talabini shakllantirishni taqazo qiladi. Shu bilan birga, tashqi bozorlarga muvaffaqiyatli chiqishning asosiy omili zamonaviy sharoitlarga moslashgan va jahon mehnat bozorida talabga ega bo'lgan bitiruvchilarni tayyorlashdir. Ushbu masalani rivojlantirishni kun tartibiga kiritgan davlatlar o'zlarining ta'lim maydonida xorijiy talabalar oqimini ko'paytirishga intilmoqdalar.

O'zbekiston ham bundan mustasno emas, u ta'lim migratsiyasi siyosatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga intiladi. Jahon ta'lim xizmatlari bozorida muvaffaqiyatli raqobat muhim iqtisodiy samarani hisoblash imkonini beradi.

Qolaversa, O'zbekistonga o'qish uchun kelganlar o'z-o'zidan behabar mamlakatimiz madaniy me'yorlari va an'alarining bevosita keng yoyilishiga hissa qo'shadilar, bu esa "yumshoq kuch" shakillanishining ta'siri haqida gapirish imkonini beradi. Bundan tashqari, ta'lim eksporti mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalarida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon ta'lim bozori paydo bo'lishining obyektiv asosi ta'lim tizimining har tomonlama rivojlanishi va uning ahamiyatining ortishidir. Bu ta'lim va fan globallashtiruvining umumiy tendensiyasiga mos keladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, globallashtiruv jarayonining sur'atlarini oshirish tendensiyasi mamlakatlararo ta'lim harakatchanligi ko'lamining kengayishi nuqtai nazaridan zamonaviy voqelik xorijiy talabalarning ijtimoiy-madaniy moslashuv mexanizmlari to'g'risida to'plangan bilimlarini qayta ko'rib chiqish zarurligini taqozo etmoqda.

Bizning ishimizdan maqsad tibbiyot universitetida tahsil olayotgan xorijiy talabalarning moslashuv darajasini o'rganish edi. Buning uchun 2023 yil aprel oyida Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filialida tahsil olayotgan chet ellik 120 nafar talabalarda so'rovnoma o'tkazildi (o'qishning birinchi kursidan to'rtinchi kursigacha). Hindistondan 30 nafar, Pokistondan 30 nafar, Turkmanistondan 40 nafar, Qirg'izistondan 10 nafar, Rassiyadan 9 nafar, Afg'onistondan Inafar talaba so'rovnomada ishtirok qilishdi.

So'rovnomada xorijiy talabalarning yangi madaniy muhitda hayotning muhim jihatlari, shu jumladan tilga madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida munosabati va ona madaniyatini rivojlantirish, ijtimoiy muhitga qo'shilish va uning qabul qilinishiga oid savollar shakillantiriladi. So'rovnoma davomida savollarni yaxshiroq va aniq tushunish uchun so'rovnoma ingliz, rus tillariga tarjima qilindi.

Xorijiy talabalarning yangi ijtimoiy muhitga moslashuvining madaniy asoslari Talabalarning yangi sharoitlariga muvaffaqiyatli moslashtirishning muhim jihatlaridan biri bu ularning mahalliy aholi bilan aloqa qilish imkoniyati va bo'sh vaqtini tashkil etishdir. Birgalikda vaqt o'tkazish mezbon mamlakatning madaniy xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga, shuningdek, tillarni progressiv o'rganishga yordam beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, biz bu yerda o'zbek tili haqida aniq ijtimoiy-madaniy moslashuv prizmasi orqali, u yashash muhitida muloqot qilish usuli sifatida harakat qilganda gapiramiz. O'zbek tili bilan bog'liq qiyinchiliklar tufayli ko'pincha mudofaa reaksiyasi paydo bo'ladi, bu chet ellik talabalar nng universitet va mahalliy hamjamiyatning madaniy hayotida ishtirok etmasligida namoyon bo'ladi. Moslashuv jarayonining bunday rivojlanishi ichki his-tuyg'ularni, apatiyani va haqiqatni rad etishni keltirib chiqaradi.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ham affektiv natijalarga ta'sir qiladi, garchi do'stlik tarmoqlari bo'yicha tadqiqotlar tarmoqlar sonidan ko'ra haqiqiy yordamning miqdori va sifatiga ko'proq e'tibor bersada. Ham mezbon, ham vatandoshlar tomonidan

ijtimoiy qo'llab-quvvatlash talabalarining psixologik farovonligini oshirishga hissa qo'shishi mumkin. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "uy sog'inchi kasalligi" ni ham yengillashtiradi.

Chet ellik talabalar tomonidan atrofdagi voqelikni to'liq idrok etmaslik ularning qabul qiluvchi mamlakatning ijtimoiy muhitiga jalb qilish muammolaridan dalolat beradi. Bu yerda biz ma'lum bir adaptiv assimetriya haqida gapirishimiz kerak. Mavjud sharoitlarda talaba migrant o'zini tutish usullarida kerakli o'zgarishlarni amalga oshiradi. Biroq, bu o'zgarishlar rasmiy harakterga ega, nisbatan yangi ijtimoiy muhitning ichki begonalashuvi davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tanaka, T., J. Takai, T. Kohyama, T. Fujixara va X. Minami. 1997. Ijtimoiy tarmoqlarning madaniyatlararo moslashuvdagi ta'siri. Yapon psixologik tadqiqotlari 39: 12-24..
2. Hannigan, T. 1997. Xalqaro talabalarda vatanni sog'inish va madaniyatlilik stressi. Geografik harakatning psixologik jihatlarida, ed. M.A.L.. Van Tilburg va A.J.J.M. Vingerhoets, 71-81. Tilburg: Tilburg universiteti matbuoti.
3. Беляков, С. А., Краснова, Г. А. (2016) Экспорт высшего образования: состояние и перспективы в России и мире // Университетское управление: практика анализ. <http://dx.doi.org/10.15826/umj.2016.106.056> №106 (6). С.26-34.DOI:
4. Гусейн-Заде, Р. Г., Деревянченко, А. А. (2019) Экспорт образования в эпоху Инноваций // Знание. Понимание. Умение. №4. С. 53-65. DOI: <http://dx.doi.org/10.17805/zpu.2019.4.4>
5. Клячко, Т. Л., Краснова, Г. А. (2015) Экспорт высшего образования: состояние и перспективы в мире и России // Экономика образования. Т. 1. №2.С. 102-108.